



## MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: -15 Noyabr 2021  
Ma'qullandi: 20- Noyabr 2021  
Chop etildi: 25 - Noyabr 2021

## KALIT SO'ZLAR

Ta'lim, ta'lim tizimi, maktabgacha ta'lim, tarbiya, davlat, takomillashtirish, "Yo'l xaritasi", Konsepsiya, rivojlanish, soha, pedagog, mutaxassis.

Hozirda mamlakatimizning yorug' kelajagini belgilaydigan, uning kuch qudratini ta'minlaydigan sohalar juda ko'p. Ta'lim-tarbiya sohasi shubhasiz ular orasida alohida ahamiyatga ega. Chunki mamlakatimizning, xalqimizning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan yosh avlod taqdiri bilan uzviy bog'liq. Davlatimiz va hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qarorlar zamirida ham ta'lim sohasini takomillashtirish jismoniy barkamol, intellektual salohiyatli avlodni shakllantirish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlar tayyorlash ustivor vazifalar sifatida qad etiladi. Sog'lom

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT VA HUKUMAT E'TIBORIDA. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI 2030 YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI.

U.R.Radjabov<sup>1</sup>, I.O.Aliyeva<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Dotsent Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasini mudiri.

<sup>2</sup>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Magistratura bo'limi, Jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi muraxassisligi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5749578>

## ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlarning qonun hujjatlarida aks ettirilishi yoritilgan. Ta'limning asosiy va bosh bo'g'imi hosoblangan maktabgacha ta'lim sohasi keying yillarda davlatimiz va hukumatimiz tomonidan yuqori darajada qo'llab-quvvatlanayotgani va buning samarasi sezilarli darajada ekanligi barchamizga ma'lum. Ushbu sohani chuqur taxlil qilish va yanada takomillashtirish borasidagi ishlar maqolada O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida yoritilgan.

va barkamol avlodni tarbiyalashning muhim bosqichi hisoblangan Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo miqiyosida rivojlangan davlatlar ta'lim tizimini kuzatish orqali olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari maktab bosqichiga yetarli darajada tayyor bo'lishlari uchun muhim tizimlar ishlab chiqilgan. Ular orasida mukammallashtirilgan o'quv mashg'ulotlari bilan birgalikda sport mashg'ulotlariga ham alohida e'tibor qaratilgan va



mashg'ulotlarning asosiy qismini sport mashg'ulotlari va turizm tshkil etadi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2707 sonli qarori yurtimizda ham ta'limning ushbu bosqichiga bo'lgan e'tiborning naqadar teran ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim tizimidan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenrining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955 sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi, 2019-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari, 2025-2030-yillarda O'zbekiston

Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlanishi belgilandi. Shuningdek yuqoridagilar tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda har yili tasdiqlangan alohida "Yo'l xaritasi" asosida amalga oshirib borilishi belgilandi. Qarorga ko'ra O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi har yili 1-dekabr qadar o'tayotgan yilning "Yo'l xaritasi" bajarilishi yakunlarini o'rganish asosida keying yil uchun "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasiga taqdim etadi. Bundan ko'zlangan maqsad yil davomida amalga oshirilgan ishlarning sarhisobi reja asosida bajarilganligini qat'iy nazorat qilish, yo'l qo'yilgan kamchiliklar, tizimda uchraydigan muammolarni hal etish bo'yicha mukammal tizim ishlab chiqish, ta'limdagi yangiliklarni sohaga tatbiq etish va natijalarini taxlil etish, bu orqali maktabgacha ta'lim tizimini yuqori darajada takomillashtirishga erishish bilan Respublikamiz ta'lim tizimida tub islohatni asosiy va bosh bo'g'inda yaqqol namoyin etishdir.

Albatta har bir soha rivojlanishi, takomillashtirilishi borasida ma'lum moliyaviy ko'makka muhtoj. Ushbu masala qarorda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim Vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning hayriya mablag'lari, xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy davlatlar va boshqa donorlar kreditlari (qarzlari), gratnlari va texnik ko'maklashish mablag'lari, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar bilan hal etilgan.



Konsepsiya hamda “Yo’l xaritasi”ni bajarilishi bo’yicha mas’ul tshkilot va idoralarning faoliyati va o’zaro hamkorligini samaraloi tshkil etish, “Yo’l xaritalari” bajarilishini monitoring qilish davomida aniqlangan kamchiliklarni o’z vaqtida bartaraf etish O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o’rinbosari A.A.Abduhakimpovga yuklarilgan bo’lsa, Konmsepsiya va “Yo’l xaritasida” nazarda tutilgan tadbirlarni o’z vaqtida, to’laqonli va sifatli bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vaziri A.V.Shin zimmasiga yuklatilgan.

Mazkur qarorning keng yoritilishi bo’yicha chiqishlar va termik ko’rsatuvlar tashkil qilishda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O’zbekiston milliy axborot agentligi hamda O’zbekistin milliy teleradio

kompaniyasi ma’sul etib belgilangan. Albatta har bir qarorning ijrosi bo’lgani kabi uning nazorti ham mavjuddir. Ushbu qarorining ijrosini nazorat qilish O’zbekiston Respublikasining bosh vaziri A.N.Aripov va O’zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.A.Abduvaxitov zimmasiga yuklatilgan.

Yuqoridagilardan ma’lumki yurtimiz ta’lim tizimi takomillashtirilishi borasida amalga oshorilayotgan ishlarining har qaysi amalga to’liq tadbir etilishida qat’iy tartib va nazoratga ega, shuningdek, ushbu ishlarining to’liq amalga oshirilishi borasida soha hodimlarining barchasi birdek mas’ul ekanligini unutmashimiz lozim. Qachonki sohasida barcha hodimlar: pedagoglar, nazoratchilar, boshqaruvchilar, mutasaddilar, umumiy olib aytganda barcha qatlam ishtirokchilari birdek mas’uliyatni his etib, sidqidildan ishlar ekan doimiy va yuqori natija qayd etilaveradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori 8.05.2019 yil, O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida. PQ-4312 sonli qarori.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori 29.12.2016 yil, 2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida. PQ-2707 sonli qarori.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2018 yil Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida. PQ-3955 sonli qarori.
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. [www.mygow.uz](http://www.mygow.uz)
6. [www.library.uz](http://www.library.uz)
7. [www.huquqiyaxborot.uz](http://www.huquqiyaxborot.uz)